



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ



АНДИЖОН МАШИНАСОЗЛИК ИНСТИТУТИ




«ИЛМ-ФАН, ТАЪЛИМ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ  
ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЗАМОНАВИЙ  
МУАММОЛАР» МАВЗУСИДА ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
КОНФЕРЕНЦИЯ

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ ПО ТЕМЕ: “СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ НАУКИ, ОБРАЗОВАНИЯ И  
ПРОИЗВОДСТВА”.

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON  
THE TOPIC OF “MODERN ISSUES OF MODERN ISSUES OF  
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SCIENCE, EDUCATION AND  
PRODUCTION”.

АНДИЖОН 2020



Халқаро илмий-амалий конференция тўплами

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

**Ҳайъат раиси: У.М. Турдиалиев, т.ф.д., катта илмий ходим**

**Масъул мухаррирлар: У.А.Мадраҳимов, и.ф.д., доцент**

**Аъзолар: Қ. Халмерзаев, Ҳ. Акбаров, З. Жўраев, Т. Алматаев,  
Р. Раҳимов.**



**I-ШЎҶБА**

**ТЕХНИКА ФАНЛАРИ**

**З-ҚИСМ**

*Мақолаларнинг мазмуни ва моҳияти ҳамда маълумотларнинг  
тўғрилигига шахсан муаллифлар жавобгардир*

**АНДИЖОН МАШИНСОЗЛИК ИНСТИТУТИ**

**АНДИЖОН 2020**

Халқаро илмий-амалий конференция түплами

	УСУЛЛАРИ ТАХЛИЛИ НАТИЖАЛАРИ.....	181
39.	С.С. Юсупов, Ж.Ш. Иноятходжаев, С. Эргашев. ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТРАНСПОРТ ТИЗИМЛАРИДА СИНЕРГЕТИК МАСАЛАЛАРНИ ЕЧИШДА МАТЕМАТИК ЁНДАШУВ.....	187
40.	С.С. Юсупов, А.А. Хошимов, Ж.Ш. Иноятходжаев. ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТРАНСПОРТ ТИЗИМЛАРИДА ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ВА ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР ТАХЛИЛ.....	191
41.	Д.Х. Шукuroв, Х.Х. Тураев, А.Т. Джалилов, М.У. Каримов. БҮЁҚ СЕЗГИР ҚУЁШ БАТАРЕЯЛАРИНИНГ ИШЛАШ ПРИНЦИПИ DSSC.....	200
42.	В.Х. Назарова. КЛАССИФИКАЦИЯ ФАКТОРОВ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ УСЛУГ ГОРОДСКОГО ОБЩЕСТВЕННОГО ПАССАЖИРСКОГО ТРАНСПОРТА..	203
43.	Ш.И. Хикматов, А.А. Исматов. ИССЛЕДОВАНИЕ ДИНАМИКИ ТРАНСМИССИИ ПОЛНОПРИВОДНОГО АВТОМОБИЛЯ С СИЛОВОЙ УСТАНОВКОЙ ISUZU.....	206
44.	М.А. Абрагалов, М.М. Абрагалов, Ш.А. Абдухакимов, Д.Б. Хайдаров. РАСКИСЛЕНИЕ МЕТАЛЛА СВАРОЧНОЙ ВАННЫ.....	209
45.	Ф.С. Холтураев. ИССЛЕДОВАНИЕ ФИЛЬТРАЦИОННЫХ СВОЙСТВ КОЖЕВЕННОГО ПОЛУФАБРИКАТА.....	216
46.	Ю.К. Рашидов. САМОДРЕНИРУЕМЫЕ ГЕЛИОУСТАНОВКИ: ОСОБЕННОСТИ РАСЧЁТА ГИДРАВЛИЧЕСКОГО УДАРА.....	221
47.	Ю.К. Рашидов. ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМ СОЛНЕЧНОГО ТЕПЛОСНАБЖЕНИЯ НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ САМОРЕГУЛИРУЕМЫХ АКТИВНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ.....	229
48.	Р.У. Синдаров. ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗРАБОТКИ И ВНЕДРЕНИЯ УЧЕБНО-МЕТОДИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА ГРАФИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ....	237
49.	Sh.A. Anarova, O.M. Narzulloyev, Z.E. Ibrahimova. TO'QIMACHILIK DIZAYNIDA MURAKKAB FRAKTAL TUZILISHIDAGI TASVIRLARDAN FOYDALANISH.....	246
50.	С.М. Абдурахмонов, С.М. Сайтов, А. Еникеев. ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ БОШҚАРИШДА КАСКАДЛИ ТИЗИМЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ.....	251
51.	Ў.К. Матёкубов, Д.А. Давронбеков. ТАЯНЧ СТАНЦИЯЛАРИНИНГ ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ ОРҚАЛИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ЗАРУРЛИГИНИ АНИҚЛАШ.....	255
52.	И.Қ. Ҳўжаев, Ҳ.А. Мамадалиев, Ҳ.Ҳ. Аминов, С.Қ. Қурбанов. OFMA ҚУВУР ЧИЗИҚЛИ ҚИСМИДА МАССА САРФИ ЎЗГАРИШЛАРИ ШАРТИДА ЎТИШ ЖАРАЁНЛАРНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ.....	261
53.	F.H. Маҳмудов, Л.Х. Абдураҳимов. АВТОМОБИЛЛАРДА ЖОРИЙ ҚИЛИНГАН «STOP-START» ТИЗИМЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАХЛИЛИ.....	264
54.	М.З. Мусаджанов, К.И. Ибрагимов., М.М. Маҳмудов ЭКСПЛУАТАЦИОННАЯ НАДЕЖНОСТЬ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ ВОЗДУХА АВТОБУСОВ MAN A22 CNG В ГАРАНТИЙНЫЙ ПЕРИОД ЭКСПЛУАТАЦИИ.....	270
55.	А.М. Уринбоев. РАСХОД ТОПЛИВА АВТОМОБИЛЯ: СПОСОБЫ ЕГО СНИЖЕНИЯ.....	279
56.	И.И. Усманов. НОРМЫ ВЫБРОСОВ ВРЕДНЫХ ВЕЩЕСТВ В СОСТАВЕ ОТРАБОТАВШИХ ГАЗОВ АВТОМОБИЛЕЙ В МИРЕ.....	282
57.	А.А. Мухитдинов, С.С. Тўхтамишов. АВТОНОМ АВТОМАТ ТОРМОЗЛАШ БОШҚАРМАСИНИ СИНАШ УСЛУБИ.....	285
58.	G.N. Mahmudov, S.I. Raximov. GIBRID TRANSPORT VOSITALARINING TAHLILI.....	290
59.	Э.З. Файзуллаев, А.С. Раҳмонов, Ф.И. Охунов, Ш.И. Носиржонов. TOF ИҚЛИМ ШАРОИТИНИНГ ТРАНСПОРТ ҲАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЪСИРИНИЙ ЎРГАНИШ.....	296
60.	А.А. Мухитдинов, Х.Т. Файзуллоев. ABS (ANTI-LOCK BRAKING SYSTEM –	

## Халқаро илмий-амалий конференция тўплами

геометрия и инженерно-компьютерная графика, “дизайн”. Самарканд, СамГАСИ, 2008. 50-55 стр.

2. Чемоданова Т.В. Организационно-методическое обеспечение графической подготовки студентов на основе использования конструкторской системы автоматизированного проектирования: Моногр. - Снежинск: СГФТА, 2003. - 8,9 п.л.- 178с, ил.

3. Дмитриев, В.М., Дмитриев, И.В. Структура автоматизированного учебно-методического комплекса по техническим дисциплинам. //Вестник РУДН. Серия «Информатизация образования», 2010.

4. <http://www.bti.secna.ru/teacher/umk/textbook.shtml>. Рекомендации по разработке УМК.

## TO'QIMACHILIK DIZAYNIDA MURAKKAB FRAKTAL TUZILISHIDAGI TASVIRLARDAN FOYDALANISH

**Sh.A. Anarova - t.f.d., professor, O.M. Narzulloev -katta o'qituvchi,  
Z.E. Ibrahimova –Assitent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent  
axborot texnologiyalari unversiteti Samarqand filiali, e-mail:**

[zuli117@mail.ru](mailto:zuli117@mail.ru)

*Annotatsiya. Maskur maqola to'qimachilik dizaynida fraktal tasvirlardan foydalanishning asosiy tushunchalarini o'rGANISHGA bag'ishlangan. Murakkab tuzulishli fraktal naqshlarni qurishga mo'ljallangan usullarning imkoniyatlari haqidagi mulahazalar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: Fraktal nazariya, fraktal tasvir, to'qimachlik dizayni, naqsh dizayni, IFS, RFM, Meta-fraktal rekursiya, L-tizimlar*

*To'qimachilik va naqsh dizayni-to'qimachilik sanoatida ham, kompyuter grafikasida ham olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning eng muhim omili hisoblanadi. Naqsh dizaynida har qanday ob'ekt va manzaralardan, shu jumladan*

## Халқаро илмий-амалий конференция тўплами

odam tomonidan yaratilgan mavhum narsalardan foydalanish mumkin. Avvallari an'anaviy dizaynlarni yaratishda ishlataladigan usullar faqat mutaxassislar tomonidan yaratilib, naqshlarning murakkablik darajasi cheklangan edi.

Kiyim-kechaklarning naqshlarini va ranglarini shakllantirish, uylarni jihozlash kabi kundalik ehtiyojlar vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Dizaynning barcha sohalari orasida to'qimachilik dizayni tobora kengayib borayotgan soha bo'lib, u moda dizayni, gilam ishlab chiqarish va gazlamalar bilan bog'liq sohalarni qamrab oladi.

*Fraktallar-juda go'zal dizayndir, ularni rangi va tasviridan hayratlanish mumkin.* Bu insonning hayotga bo'lgan munosabatini o'zgartirgan va odamlarga tabiat hamda koinotni tushunishga yordam bergen buyuk ilmiy kashfiyotdir.

1975-yilda B.Mandelbrot "Fraktallar nazariyasi"ni ishlab chiqgan [1].

*Fraktal tasvir-fraktal nazariya va kompyuter tasvirlarini qayta ishslash texnologiyasining kombinasiyasi hisoblanadi.* Kompyuter texnologiyasi va fraktallar nazariyasining jadal rivojlanishi bilan to'qimachilik muhandisligida fraktallarni qo'llash tobora keng tarqaldi. To'qimachilik muhandisligidagi murakkab muammolarni "Fraktallar nazariyasi" yordamida samarali hal qilish mumkin. Fraktal tasvirlarni qo'llash to'qimachilik naqshlari dizaynnini yanada boyitadi va to'qimachilik dizaynining yangi sohasini ochib beradi.

Fraktal tasvirlarni yaratish uchun turli xil usullar mavjud, Meta-Fraktal rekursiya usuli, L-tizimlar usuli, IFS (Iterated Function System) usuli, R-funksiya (RFM) usuli va arifmetik xususiyatli binomial ko'phadlar nazariyasi usuli va to'plamlar nazariyasi usullari [2, 3].

*Meta-fraktal rekursiya usuli o'ziga-o'zi o'xshashlik xususiyatidan foydalanib fraktal tasvirlarni yaratadi.* Ushbu usul juda sodda bo'lib, faqat aniq shakl va iterativ jarayon natijasida hosil qilinuvchi tasvirlar uchun mo'ljallangan.

*L-tizimlar* usuli tasvirni qurish uchun tilshunoslik grammatikasini yaratish usulida modellashtirilgan algoritmdir. Fraktal tasvirni simulyatsiya qilish L-tizimlari usuli va genetik algoritmni aralashtirish orqali amalga oshirilishi

mumkin. Ko'plab klassik fraktallar L-tizim usuli bilan hosil qilinadi. Shuningdek, u o'simliklar morfologiyasini, ayniqsa o'simliklarning tana tuzilishini simulyatsiya qilishi mumkin. Bu virtual o'simlikni o'rganish uchun muhim usulga aylandi.

IFS usulining asosiy g'oyasida qism va butunlikning o'zaro o'xshashligi fraktal xususiyat bo'lib, qism butunning replikasidir, ular hajmi, holati va yo'nalishi bo'yicha farqlanadi. IFS usulida ma'lumotlarni siqish amalga oshiriladi. Shunday qilib, berilgan rasmlar uchun, ma'lumot shakllanishi qonuniyatları olingan taqdirdagina sezilarli darajada siqilishi mumkin. Genetik algoritmlar bilan taqqoslash orqali IFS fraktal xususiyatlarga ega o'simliklarni tabiat qonunlariga yaxshiroq javob beradigan tarzda taqlid qilishi mumkin. IFS usuli fraktal tasvirni qayta ishslash usullarining eng dinamik usuli hisoblanadi.

Murakkab iteratsiya usuli ko'pincha vaqt ni quvish algoritmi yordamida yaratiladi. Ushbu algoritm nuqta iteratsiyasiga asoslangan. Har bir display nuqtalari uchun bir necha bosqichni takrorlashdan so'ng, agar u ma'lum bir qiymatdan kattaroq bo'lsa, iterativ nuqtalardan kelib chiqishgacha bo'lgan masofa aniqlanadi. Keyin rangli tasvirlar turli xil ranglardan foydalanib, turli xil qochish tezligiga ega bo'lgan ranglarni chiqaradi. Klassik Julia to'plami va Mandelbrot to'plami ko'pincha vaqt ni quvish algoritmiga asoslangan qat'iy tasvirlarni takrorlash orqali hosil qilinadi.

Nyuton iterativ usuli vaqt ni quvish algoritmi asosida iteratsiya orqali fraktal tasvirni yaratadi.

RFM usuli yordamida oddiy sohalarning ma'lum tenglamalari bo'yicha tuzilgan sohalarning chegarasi tenglamalarini oshkormas shaklini quriladi. RFM usuli funksiyalarni cheksiz qiymatli mantiq yoki toqmantiq instrumenti sifatida qaraladi.

RFM usulida algoritm uchun kiruvchi ma'lumot quyidagilar:

1. Foydalilanidigan standart primitvlarning ko'rinishi: to'g'ri chiziq, doira, ellips, to'rtburchak, uchburchak, qavariq ko'pburchak, aylana, muntazam

ko’pburchak va boshqalar (foydalanuvchining so’roviga qarab menyu yoki ularning ko’rinishi to’ldirilib boriladi).

2. Standart primitivlarni o’lchami va o’mini aniqlovchi geometrik parametrlar.

Bu ma’lumotlar asosida tayanch funksiyalar avtomatik shakllantiriladi, chaqirilgan primitivlarning normallashgan tenglamasi va belgilar bo'yicha tashkil etilgan soha geometriyasining “ichkari tomon” - “tashqari tomon”larining predikat hamda analitik funksiyalari shakllantiriladi.

Odamlarning turmush darajasining yaxshilanishi natijasida doimiy ravishda yashash muhiti, kiyim-kechak va boshqa narsalarga nisbatan talab darajasi ortib, naqshga bo’lgan talab ham juda yuqori bo’ladi. Fraktallar nazariyasi ushbu talabni aniq qondirgan holda, tasvirlarni yaratish uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Geometrik modellashtirishga asoslangan an’anaviy naqsh dizayni kamroq o’zgaradi. Fraktal tasvirga asoslangan naqsh dizayni bir-biridan ancha farq qiladi, hamda yaratilgan naqsh o’z parametrlari bilan chambarchas bog’liq bo’ladi. Shuning uchun fraktalga asoslangan naqsh odatiy bo’lmasdan, turli uslubdaligi o’ziga xosdir. An’anaviy estetik jozibaga javob beradigan rang-barang badiiy naqshlar fraktal naqshlarni tahrirlash, qayta o’zgartirish yoki birlashtirish orqali hosil qilinadi. Va uni to’qimachilik naqshlari dizaynida qo’llash yangi imkoniyatlarni ochadi.

Hozirgi vaqtida fraktal tasvirlarni yaratishda ikkita asosiy usul mavjud bo’lib, ulardan birinchisi-matematik usullar va kompyuter dasturlarini qo’llashdir. Ikkinchisi-fraktal tasvirlarni yaratish dasturlari, masalan, UltraFractal, FractalExplorer, ChaosPro, Apophysis, Chaoscope, Fractal Editor, Mystica, Fractal Zoomer va boshqalar.

To’qimachilik muhandisligida fraktal tasvirning asosiy qo’llanmalari sifatida to’qimachilik tasvirini loyihalash, to’qimachilik dizayni, to’qimachilik naqshlari dizayni va boshqalarni keltirish mumkin. Masalan, murakkab iterativ avlod usuli bilan yaratilgan naqshlar majmuuning kompozitsiyalaridir. Va ular turli xil

funksiyalar va rang berish sxemalarini qo'llash orqali ajoyib vizual ta'sirga ega. Shunday qilib, ular to'qimachilik tasvirlarini loyihalashda ishlatalishi mumkin. IFS va L-tizimlar usuliga asoslangan fraktal naqshlar qat'iy o'ziga-o'zi o'xshashlik xususiyati asosida hosil qilinadi. Shunday qilib, ular to'qimachilik dizaynida ishlatalishi mumkin.

To'qimachilik naqshlari dizaynida fraktal tasvirning qo'llanilishini asosan futbolka naqsh dizayni, moda naqsh dizayni, dekorativ gazlama naqsh dizayni va boshqalarda ko'rish mumkin.

To'qimachilikda to'quv dizayni ko'pincha L-tizimlari usuli tomonidan o'ziga-o'zi o'xshashligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Oddiy to'quv tuzilishining xususiyatlariiga asoslanib, Kejun Cen va boshqalar L-tizimni yaratish usulidan foydalanib, o'z-o'ziga o'xshashlik darajasi 4ga teng bo'lgan fraktallardan foydalangan.

To'qimachilik naqshli dizaynida fraktal tasvirlarning dizayni va qo'llanilishini ikki qismga bo'lish mumkin. Ulardan birinchisi to'g'ridan-to'g'ri to'qilgan naqsh dizayni sifatida yaratilgan tasvirlardan foydalanish. Ikkinchisi - rasmlardan to'qimachilik naqsh dizaynining elementi sifatida foydalanishdir. Ko'pincha gul turlarining klassik tartibga solinishi ikki tomonli uzlusizligi, to'rt tomonli uzlusizlik va tarqoq permutatsiya yo'li bilan amalga oshiriladi.

Respublikamizda murakkab tuzulishli fraktallarni qurishga mo'ljallangan bir nechta dasturiy muhitlar yaratilgan bo'lib, ular yordamida fraktal tasvirlar ishlab chiqiladi. Bunday dasturi muhitlar sifatida "Geometrik fraktallar", "Fraktallar", "Generator Fraktals" keltirish mumkin. Mazkur dasturiy muhitlar RFM va arifmetik xususiyatlari binomial ko'phadlar nazariyasi usullari asosida ishlab chiqilgan matematik formulalar yordamida fraktal tasvirli naqshlarni quradi. Ushbu dasturiy muhitlar asosida olingen natijalarni [4] maqolada ko'rish mumkin.

**Adabiyotlar.**

1. Mandelbrot B. Fraktalnaya geometriya prirodi / Per. s angl. – M.: Institut kompyuternix issledovaniy, 2002. – 656 s.
2. Nazirov Sh.A., Anarova Sh.A., Nuraliev F.M. Fraktallar nazariyasi asoslari / Tashkent: Navro'z. Monografiya. 2017. - 128 b.
3. Bondarenko B.A. Generalized Pascal Triangles and Pyramids, their Fractals, Graphs, and Applications – USA, Santa Clara: Fibonacci Associations, The Third Edition. – 2010. – 296 p.
4. Anarova Sh.A., Nuraliev F.M., Narzulloev O.M. Construction of the equation of fractals structure based on the rvachev r-functions theories. Mechanical Science and Technology Update, IOP Publishing, IOP Conf. Series: Journal of Physics: Conf. Series 1260 (2019) 102002. (SCOPUS bazasidagi jurnal)

**ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ БОШҚАРИШДА КАСКАДЛИ**

**ТИЗИМЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ**

**С.М. Абдурахмонов, ф.м.ф.н., доц.,**

**Тошкент ахборот технологиялари университети Фарғона филиали,  
Ш.С. Сайитов, асс., А. Еникеев, асс., Фарғона политехника институти**

**Аннотация.** Мақолада ишлаб чиқариш саноатида технологик жараёнларни автоматик бошқариш тизимларини ташкил этишда мухим ўринни эгаллаган каскадли бошқариш тизимларини ташкил этиш технологияси ўрганилган ва нефтни қайта ишлаш саноати учун лойихаланган тизим ифодаланган.

**Калит сўзлар:** Технологик тизим, бошқариш қонунлари, бошқариш контури, каскад, модул, контроллер, уставка.

Ишлаб чиқариши ривожлантириши асосий омилларидан бирин технологик жараёнларни замонавий қурилмалар асосида автоматлаштириш бўлиб қолмоқда. Саноатида технологик жараенларни бошқариш

